NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Namangan viloyatida
## kichik tadbirkorlik

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **70,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,3** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **2890** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **15,3** foizga kam demakdir.

**2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **987** ta, sanoatda **849** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **428** ta, yashash va ovqatlanishda **122** ta, qurilishda **114** ta, tashish va saqlashda **86** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI UZSTAT

## 2022- yilning yanvar- iyunida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 97,0 |
| Sanoat | 44,9 |
| Qurilish | 92,6 |
| Investitsiya | 64,4 |
| Savdo | 91,0 |
| Xizmatlar | 66,7 |
| Eksport | 41,7 |
| Import | 71,2 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 30 403 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 2 890 |

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da







Yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Namangan shahri – 31,6 %, Chust tumani – 8,1 %, Uchqo‘rg‘on tumani – 8,8%, Chortoq tumani – 7,6 %, Norin tumani - 6,9 %, Uychi va Yangiqo‘ron tumanlari – 6,3 %, To‘raqo‘rg‘on tumani - 6,0 %, hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2022– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

**Savdoda**
987 ta

**Sanoatda**
849 ta

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
428 ta

**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar**
122ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 10,3 birlikni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko‘ra***




**2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***




2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida 15,0 birlik, Namangan tumanida 11,0 birlik, Uchqo‘rg‘on tumanida 10,5 birlik, Mingbulloq tumanida 9,7 birlik, Norin tumanida 9,1 birlikni tashkil etgan.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida 15,0 birlik, Namangan tumanida 11,0 birlik, Uchqo‘rg‘on tumanida 10,5 birlik, Mingbuloq tumanida 9,7 birlik, Norin tumanida 9,1 birlikni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Namangan tumani - 15,0 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Norin tumani - 9,1 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Yangiqo‘rg‘on tum ani - 6,8 birlik.**

**2022- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 113,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 41,7 % ini tashkil etdi.



**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi**




**2022- yilnig yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar – iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Norin tumanida – 91,4 %ni, Namangan shahriida – 61,7 %, Pop tumanida – 51,1 %, Uychi tumanida – 47,8 %ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – 11,3 %ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **239,8** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **71,2** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlarida – 100,0 %, Norin shahrida – 99,8 %, Pop tumanida – 94,3 %, Kosonsoy tumanida – 90,2 %, Uychi tumanida – 87,9 %. Eng past ko‘rsatkich Mingbuloq tumanida - 21,7 %ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3479,5** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (1486,7 mlrd. so‘m), Uychi (332,7 mlrd. so‘m), Mingbuloq (317,8 mlrd. so‘m), Chust (302,0 mlrd. so‘m) va Namangan (198,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Norin tumanida (45,8 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati






Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **44,9** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0%), Mingbuloq tumani (91,3%), Uychi tumani (71,8%), Pop tumani (59,0%), Namangan shahri (53,2%) tashkil etdi. To'raqo'rg'on tumanida esa, (10,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7404,6** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,0** % ini tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,3** % ga o‘sishi kuzatildi.

**2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (3345,7 mlrd. so‘m), Chust (596,1 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (490,6 mlrd. so‘m), Pop (404,1 mlrd. so‘m), Yangiqo‘rg‘on(374,4 mlrd. so‘m) hamda Uychi (358,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi**




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2706,5** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,6** % ini tashkil etdi. o‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,7** %ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (737,5 mlrd. so‘m), Uychi (304,6 mlrd. so‘m), Namangan (248,6 mlrd. so‘m), Kosonsoy (241,3 mlrd. so‘m), Chortoq (204,1 mlrd. so‘m), Uchqo‘rg‘on (178,5 mlrd. so‘m) hamda To‘raqo‘rg‘on (152,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi






2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4554,1** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,7** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **114,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Namangan shahri (1319,0 mlrd. so‘m), Chust (345,7 mlrd. so‘m), Uychi (344,5 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (337,9 mlrd. so‘m), Pop (314,0 mlrd. so‘m), Chortoq (299,6 mlrd. so‘m) va Namangan (299,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar- iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



# 2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,3 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,4 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,5 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,5 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II-chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada 1090 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 395(36,2%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 623(57,2%) tasi subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 72(6,6%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlani-shi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,7 % (64 ta), sanoatda – 23,2 % (253 ta), qurilishda – 7,6 % (83 ta), savdoda – 38,7 % (422 ta), xizmatlar sohasida – 24,9 % (268 ta) ni tashkil etdi.

**2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**





# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (383 ta), Pop tumani (93 ta), Namangan va Chust tumanlari (78 tagan) hamda To‘raqo‘rg‘on tumani (74 ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning <u>joriy davrda</u> iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig <u>yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli</u> bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda 40,3 %ni, savdoda 36,7 %ni, qurilish sohasida 35,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 60,1 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 59,4 %ni, qurilishda 57,8 %ni tashkil etdi.

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 46,0 %ni, sanoatda 45,4 %ni, qurilish sohasida 43,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 56,7 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 54,7 %ni, qurilishda 53,0 %ni tashkil etdi.

.

## 2022- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 46,9 | 43,4 | 9,7 |
| Band bo'lganlar soni | 18,7 | 76,6 | 4,7 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 43,4 | 51,4 | 5,2 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 34,3 | 56,4 | 9,3 |
| Raqobat muhiti* | 49,8 | 47,5 | 2,7 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 53,9 | 41,7 | 4,4 |
| Band bo'lganlar soni | 27,2 | 70,0 | 2,8 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 45,7 | 50,1 | 4,2 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 36,8 | 54,7 | 8,5 |
| Raqobat muhiti* | 51,0 | 46,4 | 2,6 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da




## 2022- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da

